

2025-yilda Jamiyatda ochiqlik sohasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar va amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi

2025-yilda Jamiyat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni yanada kuchaytirish, jamoatchilik bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish hamda axborot siyosatini takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar va aniq chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

1. Qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqaruvchi zavodlarga pressturlar tashkil etish

Maqsad: OAV vakillari va jamoatchilikka zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalarining ishlab chiqarish jarayoni hamda ularning imkoniyatlari haqida ochiq va ishonchli ma'lumot yetkazish.

Chora-tadbirlar:

2025-yil davomida press-tur tashkil etish;

OAV vakillari, bloggerlar va soha mutaxassislarini jalb qilish;

Press-tur yakunlari bo'yicha videoreportaj, maqola va ijtimoiy tarmoq materiallari tayyorlash;

Jamiyat rasmiy saytida va ijtimoiy tarmoqlarda presstur natijalari bo'yicha maxsus axborot materiallari joylashtirish.

2. Lizing shartlarining maqbulligini o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish

Maqsad: Fermer xo'jaliklari va tadbirkorlar uchun taqdim etilayotgan lizing xizmatlari shartlarining qulayligini o'rganish va takomillashtirish.

Chora-tadbirlar:

2025-yilda onlayn va oflayn shaklda ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish;

So'rovnomalarda fermerlar, klasterlar hamda boshqa lizing oluvchilarni keng jalb qilish;

Olingan natijalar asosida tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash;

So'rovnoma natijalariga ko'ra lizing shartlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

3. Lizing oluvchilar bilan jonli muloqotlar tashkil etish

Maqsad: Jamiyat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati va samaradorligini o'rganish hamda lizing oluvchilarning taklif va muammolarini bevosita eshitish.

Chora-tadbirlar:

Hududiy filiallarda har chorakda kamida bir marotaba ochiq muloqotlar o'tkazish;

Lizing oluvchilarning fikr va takliflarini yig'ish hamda tizimlashtirish;

Muloqot yakunlari bo'yicha tegishli rahbariyatga tahliliy hisobot taqdim etish;

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha amaliy choralar ishlab chiqish.

4. Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida ma'lumotlar xilma-xilligini oshirish

Maqsad: Jamiyat faoliyati haqida keng jamoatchilikni tezkor va sifatli axborot bilan ta'minlash.

Chora-tadbirlar:

Ijtimoiy tarmoqlarda video, infografika, intervyu va reportajlar sonini ko'paytirish;

Jamiyat faoliyatiga oid muvaffaqiyatli loyihalar va lizing oluvchilar tajribasi haqida maxsus materiallar tayyorlash;

Ijtimoiy tarmoqlarda haftalik kontent-reja asosida muntazam axborot joylashtirish;

Kuzatuvchilar bilan interaktiv muloqot (savol-javoblar, jonli efirlar) tashkil etish.